

**Qahhorova Sevinch Shavkat qizi**

**Mahmudova Ozodaxon Musojon qizi**

*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlar fakulteti*

*O'zga tilli guruhlarda rus tili yo'nalishi 2-bosqich talabalari*

*Ilmiy rahbar: Gulmira Komilova Temirovna*

**Anotatsiya:** *Ushbu maqolada ravishning affiksatsiya bilan yasalishini hamda ma'no turlarini ko'rib chiqamiz.*

"Ravish-Harakatning belgisini anglatadigan ravish leksemalar turkumi deyiladi. Ravish leksemaga shakl o'zgarishi xos emas, shunga ko'rafe'l leksemaga (o'rni bilan ot leksemaga) to'g'ridan to'g'ri bog'lanadi: tezyur, sekin gapir, astoydil ranji, ko'p so'z-kabi.

Adabiyotlarda ravish yasovchi affiks yo'qligi ta'kidlanadi. Haqiqatda, faqat butunlay(in), tiriklay(in) ravish leksemalari tarkibidagi -lay(in) affiksini sifat leksemadan ravish leksema yasovchi affiks deyish mumkin. O'zbek tiliga tojik tilidan o'zlashgan birodarona, do'stona, kamtarona

kabi leksemalar, ojizona, oqilona, xolisona kabi arabcha leksemalardan yasalishlar tarkibidagi -ona qismi asli leksema yasovchi bo'lib, faqat o'zlashganleksemalar tarkibida qatnashadi, shunga ko'ra bunday qismni o'zbek tili nuqtayi nazaridan leksema yasovchi affiks deb ajratish to'g'ri bo'lmaydi"[1].

Turli turkum leksemalari har xil shakl hosil qiluvchi affikslarni olgan holda ravishga aylanadi:

1. Oldin, keyin (ketin), kechin, ertan, kechqurun, ostin-ustun kabi leksemalar oxiridagi -n (-in, -un) qismi asli qadimgi turkiy tilda mavjud bo'lgan instrumental kelishigining qo'shimchasi bo'lib, hozirgi o'zbek tiliga yuqoridagi bir necha ravish leksema tarkibida yetib kelgan. Bu affiks hozirgi o'zbek tilida kelishik qo'shimchasi deb qaralmaydi, shunga ko'ra oldin kabi leksemalar tarkibidagi bu qism affiks sifatida ajratilmaydi, bunday birliklar bir butun holda ravish leksemaga teng deb qaraladi.

2. Hozirgi o'zbek tiliga o'zlashgan majburan, taxminan, qisman, tasodifan, vijdonan, ruhan, haqiqatan, qat'iyan kabi arabcha leksema shakllar oxiridagi -an qismi asli tushum kelishigi qo'shimchasi bo'lib, o'zbek tilida bunday qism affiks sifatida ajratilmaydi, bunday birlik bir butun holda ravish deb qaraladi (Arab tilida turlanish sifat leksemaga ham xos, qat'iyan misolida shuholat aks etgan Ot turkumi bayonida shakl yasovchi deb talqin qilingan -day (-dek) affiksoidi adabiyotlarda ravish yasovchisi deb ham keltiriladi. Bu yerda ham -day asli shakl yasovchi vazifasini bajaradi, o'xshatish ma'nosini ifodalaydi:

a) ot leksemaga qo'shilib keladi: chamanday, yashinday, qushday, toshday,

Lo‘qdek kabi;

b) sifat leksemaga qo‘shilib keladi: boyagiday, avvalgiday, bekorchiday, farqsizdek kabi;

d) yo‘q leksemasiga qo‘shilib keladi: yo‘qday;

e) olmoshga qo‘shilib keladi: sizday, bunday kabi (Olmoshga bundaqa, shunaqa shaklida ham qo‘shiladi);

f) hatto -gan sifatdosh shakliga ham qo‘shiladi: achingandek, cho‘chigandek kabi.

Bu affiksoidning bayramdagidek kabi -dagi shakl yasovchisidan keyin qo‘shilishi uning ravish leksema yasovchisi emasligini qat’iy tasdiqlaydi. Demak, -day affiksoidi turli turkum leksemalariga qo‘shilib, o‘xshatish ma’nosini ifodalashga xizmat qiladi; bu affiksoid bilan leksema yasalmaydi. Serunum ravish yasovchi deb -lab affiksi ko‘rsatiladi. Bu affiks og‘irlik o‘lchovi otlariga (yuz tonnalab, botmonlab kabi), vaqt o‘lchovi otlariga (haftalab, oylab, yillab kabi), payt otlariga (kechalab, saharlab, azonlab kabi), harf, bo‘g‘in kabi otlarga (harflab, bo‘g‘inlab) seriya sifatida qo‘shiladi, demak, bu affiks – tom ma’noda leksema yasovchi emas, balki shakl yasovchi. Faqat ataylab, dastlab kabi ayrim ravish leksemalarda-gina bu affiks o‘zi qo‘shilgan asosdan ajratilmaydigan holga kelgan. Xuddi shunday holat ma’no taraqqiyoti yo‘li bilan ertalab- leksemasida ham voqe bo‘lgan: Bu leksema payt otiga aylangan, shunga ko‘ra ertalabdan kabi kelishik qo‘shimchasini olib ham ishlatiladi.

Bu yerda tasvirlangan -lab affiksi bilan -lab chama son yasovchisi orasida o‘xshashlik kuchli: o‘nlab bir necha o‘n, haftalab bir necha hafta. Lekin donalab, harflab, bo‘g‘inlab kabi leksemalarda asos anglatadigan leksik ma’noga bog‘liq holda bu affiks bilan boshqacha har birini alohida kabi ma’no ifodalanadi. Dastlab ravishi hozirgi o‘zbek tilida ma’noli qismlarga ajralmaydi.

Adabiyotlarda -cha affiksi ham ravish yasovchi deyiladi. Avvalo bu affiksning millat, xalq nomiga qo‘shib ishlatilishini ajratib baholash kerak: o‘zbekcha, inglizcha kabi. Istagan millat, xalq nomiga qo‘shib ishlatilaveradigan bu affiks shu millatga, xalqqa mansub ma’nosini ifodalaydigan shakl yasovchi deb baholanishi lozim. -cha affiksi ko‘pincha, o‘g‘rincha kabi leksemalarning doimiy tarkibiy qismiga aylangan: Hozirgi o‘zbek tilida ko‘pin, o‘g‘rin mustaqil ishlatilmaydi.

Boshqa birliklarda -cha affiksi ajratiladi va o‘zi qo‘shilgan leksemaning ma’nosiga bog‘liq holda bir necha ma’noni ifodalashga xizmat qiladi:

a) holat ma’nosi ifodalanadi; bunda -cha affiksi sifat leksemaga, fe’l leksemaning -gan sifatdosh shakliga qo‘shiladi: yashirincha, yangicha, atroflicha, avvalgicha; shoshilganicha, istaganicha, yugurganicha kabi;

b) biroz ma’nosi ifodalanadi; bunda -cha affiksi ravish leksemaga qo‘shiladi: keyincha, hozircha kabi.

d) bilan ma’nosi ifodalanadi: yaxshilikcha kabi;

e) qadar ma’nosi ifodalanadi; bunda -cha affiksi olmoshga qo‘shiladi: sizcha, shuncha kabi. Yuqorida tasvirlangan holatlarning deyarli barchasida -cha affiksi asli



leksema yasovchi deb emas, balki shakl yasovchi deb baholanishi to'g'ri. Bu fikrni bizningcha, o'zicha kabi misollar qat'iy tasdiqlaydi: Leksema yasovchi turlovchidan, nisbatlovchidan keyin qo'shilmaydi.

1. Ravish yasovchi -larcha ko'rsatkichi ham keltiriladi: qahramonlarcha, aybdorlarcha, vaxshiylarcha, mardlarcha kabi. Bu yerda o'xshash ma'nosini ifodalaydigan -cha affiksi -lar ko'plik shakli yasovchisidan keyin qo'shiladi;

-dek shakl yasovchisiga sinonim bu affiks (qahramonlarcha qahramonlardek kabi) shakl yasovchiga teng.

2. Ochiqchasiga, o'jarchasiga, harbiychasiga kabi misollarda ravish yasovchi deb -chasiga ko'rsatkichi ajratiladi; aslida esa bu ko'rsatkich tarkibidagi -cha qismi – shakl yasovchi, -si, -ga qismlari esa – shakl o'zgartiruvchi affikslar. Demak, bu ko'rsatkichni ham leksema yasovchi deb bo'lmaydi.

3. Ilgarilari, avvallari, kechqurunlari kabi misollar tarkibidagi -lari ko'rsatkichi -lar ko'plik affiksi va -i nisbatlovchisidan iborat; demak, bu yerda ham leksema yasovchi haqida gapirib bo'lmaydi.

Alohida guruhni makon kelishigi affiksi bilan shakllangan ravishlar tashkil qiladi:

1) Jo'nalish kelishigi affiksi: a) payt ravishi leksemasiga qo'shiladi: ertaga, indinga kabi;

b) sifat leksemaga qo'shiladi: to'g'riga, bekorga kabi. Yuqoridagi misollarda kelishik affiksi aniq ajraladi, lekin olg'a, zo'rg'a, jo'rttaga misollarida kelishik affiksi hozirgi o'zbek tilida ajralmaydi.

2) Chiqish kelishigi affiksi: a) ravish leksemaga qo'shiladi: hozirdan, tezdand kabi;

b) sifat leksemaga qo'shiladi: yangidan, chindan, yolg'ondan kabi;

d) ot leksemaga qo'shiladi: tubdan, yoddan kabi;

e) bir soniga qo'shiladi: birdan. Yuqoridagi misollarda kelishik affiksi aniq ajraladi, lekin to'satdan, qo'qqisidan misollarida kelishik affiksi hozirgi o'zbek tilida ajralmaydi.

3) O'rin kelishigi affiksi tezda misolida ravish leksemaga, kunda misolida ot leksemaga, boshda misolida belgi ma'nosi bilan ishlatilgan ot leksemaga qo'shilgan. Yuqoridagi misollardan uzoqda, orqada kabilarni farqlash kerak: Bu yerda asli uzoq yerda kabi birikmashaklning ikkinchi a'zosi bo'lib keladigan yer(joy) ot leksemasi ellipslanadi, natijada kelishik affiksi birinchi a'zo vazifasida kelgan sifat leksemaga qo'shiladi. Ayrim hollarda ikki ravish leksema ayni bir asosga boshqa-boshqa kelishik ko'rsatkichini qo'shish bilan shakllanadi: birga, birdan; tezda, tezdand kabi. Bunday hodisani ayni bir asosning uch makon kelishigida turlanishi hodisasidan ajratish kerak: o'ngga, o'ngdan, o'ngda kabilar uch ravish leksema emas, balki o'rin otining uch kelishik shaklida ishlatilishiga teng; bunday o'rin oti, masalan, o'ngni kabi boshqa kelishik shaklida ham ishlatilaveradi. Ravishlarning ma'no turlari

Ravishlar ma'no jihatdan olti guruhga bo'linadi: 1) holat ravishi, 2) payt ravishi, 3) o'rin ravishi, 4) miqdor-daraja ravishi, 5) sabab ravishi, 6) maqsad ravishi.

Holat ravishi. Holat ravishi ish-harakatning qay tarzda, qay holatda bajarilishini bildirib, qanday? qay tarzda? qay holda? kabi so`roqlarga javob bo`ladi: asta, sekin, tez, piyoda, ayov, qo`qqisdan, tasodifan, xomlay, ochin-to`kin, butunligicha, jim, darov, darhol, zo`rg`a, birdan, birga, majburan, yaqqol, harbiylarcha, o`zbekcha, yuzma-yuz, ochiq-oydin kabi. Holat ravishlari, asosan, ravish holi otga bog`lanib kelganda sifatlovchi-aniqlovchi va kesim vazifalarida keladi: Bobur ota yurtidan ajralganini endi astoydil his qildi (P.Q.). Salqin shabadasi kelib olqishlar bizning g`olibona bayrog`imizni (A.M.). Auditoriya jimjit, hamma unga qarar (P.Q.).

Payt ravishi. Payt ravishi ish-harakatning paytini bildirib, qachon? qachongacha? qachondan beri? kabi so`roqlarga javob beradi. Payt ravishlariga: hozir, boya, hali, endi, oldin, burun, avval, qadim, bultur, tunov kun, yaqinda, hamisha, hanuz, hamon, bugun, indin, keyin, so`ng, yiliga, dastlab, har kuni, erta-indin, erta-kech, qishin-yozin kabilar kiradi. Payt ravishlari asosan, payt holi, ba`zan kesim vazifasida keladi. Masalan: Sen bir birodaringning ayblarini zikr qilmoqchi bo`lsang, avval o`z ayblaringni esla! (Imom Ismoil al Buxoriy). Bugun sening tug`ilgan kuning, Bugun uying to`ladi gulga (H.O.).

O`rin ravishi. O`rin ravishi ish-harakatning bajarilish o`rnini va harakat yo`nalgan tomonni anglatadi. O`rin ravishi qayerga? qayerda? qayerdan? kabi so`roqlarga javob berib, ularga nari, beri, oldinga, pastda, tubanda, yuqoridan, quyidan, u yoqqa, bu yoqqa, yaqinda, orqadan, to`g`riga, chapda, o`ngda kabilar kiradi. O`rin ravishlari gapda, asosan, o`rin holi ba`zan esa kesim vazifasini bajaradi: Biror kishi gapirgan paytida u yoq - bu yoqqa qarab qo`ysa, demak bu gap omonatdir (Hadisdan). YOshi ulug` Nazarali ota shu erda (G`.G`ulom).

Miqdor-daraja ravishi. Miqdor-daraja ravishi ish-harakatning miqdoriy belgisi, bajarilish darajasini, shuningdek, predmetning noaniq miqdori, belgining darajasi va miqdorini anglatadi. Miqdor-daraja ravishlari ma`no xususiyatiga ko`ra ikki guruhga bo`linadi: miqdor ravishi va daraja ravishi. Miqdor ravishi miqdor tushunchasini anglatib, harakat-holatning bajarilishida uning miqdoriy belgisini ko`rsatadi. Shu bilan birga miqdor ravishi otga ham bog`lanib kela oladigan ravish turidir, shu jihatdan bu ravishlar predmetning noaniq miqdorini ham ifodalaydi. Miqdor ravishi qancha? so`rog`iga javob berib, ularga ko`p, mo`l, kam, bir oz, sal, picha, xiyol kabilar kiradi. Daraja ravishi daraja tushunchasini anglatib, harakat-holatning bajarilish darajasini ko`rsatadi. Ba`zan daraja ravishlari sifat va ravishning o`ziga bog`lanib kelib, belgi ma`nosini kuchaytirib keladi. Bu ravishlar qay darajada? so`rog`iga javob berib, ularga g`oyat, nihoyatda, obdon, o`ta, aslo, sira kabilar kiradi. Daraja ravishlari belgi ma`nosini kuchaytirishiga ko`ra (juda, g`oyat) sifat va ravishlarning orttirma darajasini hosil qiladigan element sifatida ham qatnashadi. Miqdor-daraja ravishlari, asosan, miqdor-daraja holi, ba`zan kesim vazifasini bajaradi: Mo`l-ko`l nur to`kar, ko`kdan qadrdon quyoshimiz (E.Vohidov). Biroq ko`zgu shunaqangi xira ediki, o`zimning



yuzimni zo`rg`a ko`rardim (O`.H.). Miqdor-daraja ravishi predmetning belgisini bildirib, sifatlovchi-aniqlovchi vazifasida ham keladi: Ko`p gap quloqqa yoqmas (Maqol).

Sabab ravishi. Sabab ravishi ish-harakatning bajarilish sababini anglatadi. Sabab ravishi nega? nima uchun? nima sababdan? kabi so`roqlarga javob bo`ladi va ularga noiloj, noilojlikdan, chorasiz, chorasizlikdan kabi ravishlar kiradi. Sabab ravishi, asosan, sabab holi vazifasini bajaradi: Qunduzoyning qistashi bilan noiloj birinchi qatorga borib o`tirdi (Oydin).

Maqsad ravishi. Maqsad ravishi ish-harakatning bajarilishidagi maqsadni anglatib, nega? nima maqsadda? kabi so`roqlarga javob beradi. Bu ravishlarga atay(in), ataylab, jo`rttaga, qasddan kabilar kiradi. Maqsad ravishi gapda, asosan, maqsad holi vazifasini bajaradi: Yuksak binolar tomon, Bordik bizlar atayin (Po`lat Mo`min).

#### *Xulosa*

Xulosa qilib aytganda, ravish leksema asosan biror turkum leksema shaklining, shuningdek biror birikma shaklning ma'no taraqqiyoti yo`li bilan ravishga aylangan holatini ko`rib chiqdik. Bugungi maqolamizda ravishning ma'no turlari va yasalishini tahlil qildik.

#### **FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Shavkat Rahmatullayev. "Hozirgi adabiy tili"
2. <http://ziyonet.uz>.
3. Alibek Rustamov. "Umumiy tilshunoslik"
4. Shonazar Shoabdurahmonov. "Hozirgi o`zbek adabiy tili"
5. Hojiyev Azim Plato uch. "Hozirgi o`zbek tilida forma yasalishi"